

MAVZU: Karlarni mehnatga o'qitish tizimi.

- Mehnat taʼlimi – karlar maktabi ўqув tajriba jaraʼening asosiy tarkibiy qismi sifatida.
- Mehnat taʼlimining asosiy vazifasi.
- Kelajak avlodlar tarbiyasida mehnatning roli.
- Karlar maktabida mehnat taʼlimi bosqichlari.
- Kasbga iynalтириш буйича эшитишида нуқсони бўлган болалар мактабида олиб бориладиган ишлар.



Mehnat ta'limining asosiy vazifasi

- kar bolalarda mehnatga nisbatan ijobiy hislatlarni tarbiyalash , xalq xo'jaligida ishtirok etish va uni zarurligini singdirishdan iborat. O'quvchilar jamiyat rivojlanishi uchun mehnatning muhumliligini anglashi lozim. Mehnat ta'limining vazifalaridan biri mehnat faoliyatida zarur bo'luvchi amaliy bilim va malakalar bilan qurollantirish ,shuningdek olingan bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashdir.



Mehnat darislarida yuqori mehnat madaniyati, tarbiyalanadi va nihoyat yana bir muhim vazifa – bu kar bolalarda nutqni shakillanishini va rivojlanishini amaliyot bilan birga olib borilishidir

- Hozirgi davrda mehnat ta'limida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Mehnatda ishtirok etish jarayonida o'quvchilar ko'pgina mehnat tiplari bilan tanishadilar, ayrimlarida o'z kuchlarini sinab ko'rishlari mumkin bo'ladi.



Kar maktabida mehnat ta'limi bosqichlari.

- Karlar maktabida mehnat ta'limi fan sifatida barcha sinflarni o'z ichiga oladi.
- Birinch bosqich- boshlang'ich sinflarda fan amaliy ta'limi hisoblanadi. Fan amaliy ta'limining vazifasi quydagilardan iborat: kar o'quvchilarni bilish jarayoni. Komunikatsiya tamoyili saosida nutqni rivojlantirish umumiy fanlarni o'zlashtirishga yordam beruvchi hayotiy tushunchalarni shakillantirish: mehnat malaka va ko'nikmalarini shakillantirish, ijobiy shaxsiy xususiyatlarni PAT tarkibi o'quv jarayonida o'z aksini topgan. PAT turlari xilma-xildir:lepka modellashtirish,ko'rish yasash ,aplekatsiya,mato bilan ishlash,mazayka,turli materiallar bilan ishlash.

PAT o'rta sinf kar o'quvchilari uchun politexnik ta'lim olishda asos bo'lib xizmat qiladi. PAT darslarida o'quvchilar turli ish qurollari bilan tanishadilar, mehnat operatsiyalarini o'rganadilar, o'z amaliy faoliyatlarini rejalashtirish orqali mehnat asoslari va texnika havfsizligi elementlari bilantanihil boradilar. Nutq rivojlanishi bilan o'quvchilar maxsus va texnik so'zlar bilan lug'atini boyitib boradilar. Mehnat jarayonida bolalar yakka,juft,jamoa bo'lib ishlash,bir-birigayordam berishmaqsadli ishlash mehnat operatsiyalarini ehtiyotkorlik bilan bajarish chiroyli buyumlar yasash malakalarini egallaydilar.



Kasbga yo'naltirish bo'yicha eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktabda olib boriladigan ishlar.

- Kasbga yo'naltirish bir qator psixologik-pedagogik, tibbiy va tashkiliy choralarni nazarda tutadi.
- U bitiruvchilarning kasb tanlashga ongli yondoshuvlarni va u jamiyat talabalarga mos kelishini xalq xo'jaligining ijtimoiy tejamkorlik borasidagi talablarga javob berishi va har bir o'quvchining yakka rivojlanishiga yordam beradi.
- O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorligi bir necha faktorlarga bog'liq bo'ladi, jumladan eng ko'p tarqalgan mehnat tili haqida ma'lumotga ega bo'lish, jismoniy varuhiy tomondan shaxsga qo'yiladigan talablarni bilish u yoki bu kasbni egallash yo'llari haqida bilish shaxsiy hususiyatlariga to'g'ri baho bergan holda kasb tanlash.

Kasbga yo'naltirishdagi birinchi bosqich

- Kasb haqida ma'lumot berishdir. Kasb haqida axborot berish kar bolalarning kasb haqida bilimga ega bo'lishiga ularni har biridagi mehnat faoliyati haqida kasbni kishiga qo'yuvchi talablari haqida, bu kasbni qayerda egallash mumkinligini nazarda tutadi. Kasb haqida axborot turli formalarda beriladi, jmladan fan asoslari o'rganish jarayonida, mehnat ta'limi darslarida. O'quvchilar bilan suhbatda ekskursiya, kinofilmlar namoyish qilganda, o'quv konferensiyalri tashkil qilinganda uchrashuvlarda.



Kasb bilan tanishtirishni ikkinchi tashkiliy elementi maslahatlardir

- Uning maqsadi bola tanlagan kasbga uning psixofizik imkoniyatlarini mos kelishini aniqlashdir. Ishning bu bo'limi bir qancha qiyinchiliklarga ega. Gap o'quvchilarni imkoniyatlarini ish o'rinlarini aniqlash haqida emas, balki har bir o'quvchining yakka hususiyatlari haqida boradi.
- Kasbiy maslaxat o'z oldiga bolani ruhiy rivojlanish xususiyatlari bilantangan kasb turini unga qo'yilgan talablar bilan moslashtirishni maqsad qilib qo'yadi.



Uchinchi vazifasi shaxsni keyingi rivojlanish imkoniyatlarini yuzaga kelishi mumkin bo'lgan imkoniyatlarni aniqlashdan iborat.

- Kasbiy yo'naltirishni tashkil etishda surdopedagogning roli katta bo'lib, u o'quvchining shaxsini turli metodlar yordamida har tomonlama o'rganishi lozim. Maktab shifokori ham katta yordam berib, uning vazifasi psixologik mexanizmlar rivojlanishini chuqur o'rganish, kar bolani jismoniy rivojlanishini mustahkamlashdan iborat.



Kar o'quvchini chuqur va har tomonlama o'rganishda u yoki bu kasbga tayyorgarligini aniqlovchi kasbiy tashxis amalgam oshiradi. Unda biologik, ruhiy, ijtimoiy tayyorgarligi aniqlanadi.



Kasbga yo'naltirishning tarkibiy qismi o'quv yurtlari mutaxasislari, tashkilot a'zolari tomonidan o'tkaziluvchi kasbiy tanlov hisoblanadi.

Kasbiy yo'naltirish ishining yakuniy bosqichi yosh ishchilarni ish joyiga moslashuvidir. Ishlab chiqarish jamoalari yosh ishchilarga qiyinchilikni yengishda yordam berishi lozim. Surdopedogoglar bitiruvchilarni ishga joylashuvini va moslashuvini nazorat qilishlari lozim.

Maxsus maktablardagi kasb-hunarga doir maslahatlar quyidagi ko'inishlarga ega:

- Tashkiliy maslahatlar (ma'lumotnoma).
- Tibbiy maslahat.
- Psixologik-pedagogik maslahat.



O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- Kasbiy ma'rifat va axborot.
- Kasbiy tashxis va maslaxat.
- Kasbiy tanlov.
- Kasbiy moslashuv



Birinchi bosqichda kasb-hunarga yo'naltirishda ishlarning negiz bo'lgan axborot bankini tashkil etish asosiy o'rin tutadi:

- "Mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy soxalarda mavjud bo'lgan kasb-hunarlar ro'yxati:"
- "Hududda mavjud kasb-hunarlarning tavsiflari:", "Xududda joylashgan akademik lisey va kasb-hunar kollejlarining joylashuv haritasi".
- Akademik lisey va kasb-hunar kollejlaridagi tayyorlov yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumot.



Mehnat ta'limi o'qituvchisining maxsus yordamga muhtoj o'quvchilarni kasb-hunarga tayyorlashdagi asosiy pedagogik maqsadi quyidagilar:

- a) o'quvchilarga zamonaviy ishlab chiqarishning ilmiy-texnikaviy asosini tushuntirish;
- b) ularda umumkasbiy bilim va ko'nikmalarni, ilmiy dunyoqarashni shakllantirish;
- v) o'quvchilarda mehnat jarayoniga nisbatan ijodiy munosabatni rivojlantirish;
- g) korxonalar va xo'jaliklar bilan ijtimoiy munosabatni yo'lga qo'yish;
- d) o'quvchi yoshlarda axloqiy fazilatlar va insonparvarlikni shakllantirish;

1.Darsdan tashqari ishlar:

- turli soxalar bo'yicha tashkil yetiladigan to'garaklar;
- o'quv ustaxonasidagi amaliy ishlab chiqarish mashg'ulotlari;
- ishlab chiqarish sayoxatlari;
- maktab o'quv- tajriba yer maydonida ishlash;
- jonli burchak tashkil yetish xamda issiqxonalaridagi faoliyat;
- sinfda, sinflararo, maktablararo, tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan ko'rik musobaqalarda ishtirok yetish;
- turli ommaviy tadbirlarda qatnashish kabilar;



2.Maktabdan tashqari ishlar:

- guruxli va ijara pudratida ishlash;
- qo'shma, xususiy va davlat korxonalarini faoliyatida ishtirok yetish;
- oilaviy mexnat, kasb- xunar, xunarmandchilik;
- ishlab chiqarish sayoxatlarini tashkil yetish;
- mavsumiy ishlarda ishtirok yetish;
- xomiy va otaliq korxonalarini bilan shartnomalar asosida buyurtmalarni bajarish.

